

ZAMONAVIY ARAB SHE'RIYATI KONTEKSTIDA G'ADA AS-SAMMANING O'RNI

THE PLACE OF GADA AS-SAMMA IN THE CONTEXT OF MODERN ARAB POETRY

МЕСТО ГАДА АС-САММЫ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОЙ АРАБСКОЙ ПОЭЗИИ

Kenjayeva Umida Hamroqul qizi

TDSHUArabshunoslik oliy maktabi 1-kurs magistranti

E mail: u3140kh@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy arab adabiyotida she'riyat rivoji hamda bugungi kunda samarali ijod qilib kelayotgan, o'z davrining peshqadam ijodkorlaridan bo'lgan Suriya-Livan adabiyoti namoyandasi G'ada as-Samanning lirikasi, uning shoiralik mahorati tadqiq etilgan. Maqolada qator badiiy, ruhiy tahlil elementlarini kashf etishga va bu tendensiyalarning hozirgi zamon jahon she'riyatidagi yetakchi bo'lib borayotgan omillar bilan bog'lashga harakat qildik.

Kalit so'zlar: arab adabiyoti, she'riyat, she'riy janrlar, lirik qahramon, muhabbat mavzusi, G'ada as-Samman.

Abstract: This article examines the development of poetry in modern Arabic literature, the lyricism of Gada al-Saman, a prominent figure in Syrian-Lebanese literature who is still actively working today and is one of the leading writers of his time, and his poetic skills. In the article, we have tried to discover a number of elements of artistic and spiritual analysis and to connect these trends with the leading factors in contemporary world poetry.

Keywords: Arabic literature, poetry, poetic genres, lyrical hero, love theme, Ghada al-Samman.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие поэзии в современной арабской литературе, лиризм Гады ас-Саман, видной фигуры сирийско-ливанской литературы, которая до сих пор активно работает и является одной из ведущих писательниц своего времени, а также её поэтическое мастерство. В статье предпринята попытка выявить ряд элементов художественно-духовного анализа и связать эти тенденции с ведущими факторами современной мировой поэзии.

Ключевые слова: арабская литература, поэзия, поэтические жанры, лирический герой, любовная тема, Гада ас-Самман.

KIRISH

XX asr arab adabiyoti o'zining yangicha mazmun va shakl namunalari, ijodiy metodlarning uyg'unlashuvi hamda o'ziga xosligi, qolaversa qisqa fursatda ilg'or jahon adabiyoti namunalari bilan belleshadigan darajada rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu davrda zamonaviy adabiyotga ayol yozuvchilar faol kirib kela boshladilar. Ularning orasida bugungi kun arab adabiyotining yirik va iste'dodli

namoyandalardan biri deb e'tirof etilgan G'ada as-Samman o'zining serqirra ijodi bilan farqlanib turadi. Uning katta va kichik hajmdagi nasriy asarlari, jurnalistik faoliyati, adabiyotshunoslik sohasida amalga oshirgan ilmiy ishlari bilan bir qatorda - aniq fikrlari, hissiyot va ong uyg'unligini ifodalovchi she'riy asarlari ham zamonaviy arab she'riyatining yorqin namunalari sifatida tan olingan.

Zamonaviy arab adabiyoti kontekstida G'ada as-Samman ijodini o'rganish, faqatgina ayol shoirlar ijodini tahlil qilish emas, balki Sharq ayolining o'zini anglashi, shaxsiy, ijtimoiy erkinlik masalalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

G'ada as-Samman — hayoti va ijodiy yo'li

G'ada as-Samman 1942-yil Suriyada Damashq shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. U Damashq universitetining ingliz filologiyasi fakultetida tahsil olgan, keyinroq esa boshqa arab mamlakatlarida, jumladan Bayrutda faoliyat yuritgan. Eng avval jurnalist sifatida biroz vaqtdan so'ng arab adabiyoti sahnasida adiba va shoira sifatida tanildi. G'ada as-Samman ijodi haqidagi tanqidiy qarashlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Arab tanqidchilari uning nasrini beqiyos deb baholaydilar. G'ada as-Samman ijodi haqidagi tanqidiy qarashlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Cooke emphasizes that Samman's creativity displayed in Beirut Nightmares lies within her ability to capture the routineness of the war in the course of its daily changes: "the difference between this journal and most others is that while the dailiness is recounted it is not divided into days but a continuum linking of events and moods"² (*Cooke ta'kidlaydiki, Sammanning "Bayrut dahshatlari" asaridagi ijodiy mahorati urushning kundalik o'zgarishlari jarayonida uning odatiyligini tasvirlash qobiliyatida namoyon bo'ladi: "bu kundalikning boshqa ko'plab kundaliklardan farqi shundaki, unda kundalik voqealar qayd etilgan bo'lsa-da, ular kunlarga bo'linmagan, balki voqealar va kayfiyatlarni uzluksiz bog'lab turuvchi oqim sifatida berilgan*). Ushbu fikrlarni Iman Adnan Al Kaisy³ o'z ilmiy tadqiqotida ham berib o'tgan. Shu bilan birgalikda ushbu tadqiqot arab ayol yozuvchilarining badiiy merosi jumladan G'ada as-Samman shaxsiy kutubxonasi haqida ham to'xtalib o'tgan. Samman ijodi va kutubxonasi misolida arab ayollari adabiyotining madaniy merosni asrash, arab tilini qadrlash va ayollik tajribasini ifodalashdagi o'rnini yaqqol ko'rinadi. Uning kutubxonasi yo'qotilishi nafaqat shaxsiy fojia, balki arab adabiy merosining bir bo'lagini yo'qotishdir. Shu bilan birga, Samman arab kitobxonlarini dunyoviy, lekin arab merosiga sodiq bo'lishga chaqiradi. Bu esa uning ijodini nafaqat adabiy, balki madaniy va ijtimoiy manifest sifatida ko'rsatadi.

Uning ilk she'rlarida inson ruhiyati, ayollik taqdiri va jamiyatdagi tengsizlik masalalari asosiy o'rin egallaydi. G'ada as-Samman o'z ijodida ko'plab shakliy tajribalar o'tkazgan, arab she'riyati an'anaviy ritm va vazn tizimidan chiqib, erkin she'r (الحر الشعر) uslubidan faol foydalangan. G'ada as-Samman "Bayrut 75" (بيروت 75), "Bayrut daxshatlari" (بيروت كوابيس), "Milliard tuni" (المليار ليل) kabi roman; "Zangori olov ichidagi ayol" (زرقاء نار قلب في امرأة), "Qo'rquvni sevgan ayol" (الخوف تعشق امرأة)

² Cooke, Miriam. (1987). *War's Other Voices: Women Writers on the Lebanese Civil War*. Vol. 14. Cambridge University Press.

³ Al Kaisy, Iman Adnan. (2017). *Losing a Library of One's Own: Ghada Samman's Beirut Nightmares, Feminist Rebellion, and World Literature*. A thesis submitted in partial fulfillment of the requirements. American University of Beirut.

kabi hikoyalari bilan mashhur, ammo uning she'riy merosi arab adabiyotining yangi bosqichida alohida ahamiyat kasb etadi.

G'ada as-Samman ijodini o'rgangan tadqiqotchilar

O'zbekistonda arab adabiyoti va arab ayollari ijodi bo'yicha bir qator arabshunos olimlar tadqiqot olib borgan. Sh Ahmedova,⁴ D.Muhiddinova,⁵ D. Abdullayeva⁶ asarlarida zamonaviy arab ayol yozuvchilari, ularning poetik va nasriy ijodi haqida ayrim ma'lumotlar berilgan. Bu tadqiqotlarda arab ayollari ijodining o'ziga xosligi, ularning ijtimoiy va madaniy muhitdagi o'rni alohida ta'kidlanadi.

Shuningdek, Elmira Ali-Zade Suriyadagi arab adabiyoti bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan.⁷ Rossiyada esa Kirpichenko arab adabiyoti tarixini keng qamrovda o'rgangan.

Yevropa va Amerika tadqiqotchilari orasida Miriam Cooke, Evelyne Accad va Sabry Hafez G'ada as-Samman ijodini arab feminizmining shakllanish jarayonida tahlil qilganlar. Ular shoirani "a symbol of the awakening of female consciousness in the Arab world" (*arab dunyosida ayol tafakkurining uyg'onish ramzi*) sifatida baholashgan. Miriam Cooke yozadi: "Arab women writers rejected male cruelty and created a new discourse of resistance." (*Arab ayol yozuvchilari erkaklar zulmini rad etib, qarshilikning yangi fikrlar tizimini yaratdilar*).⁸

Evelyne Accad esa ta'kidlaydi: "The overestimation of the penis has been lamented in Arab women's writing." (*Arab ayollari ijodida erkak jinsiy ustunligining haddan tashqari ulug'lanishi qoralangan*).⁹ Bu tadqiqotlar G'ada as-Samman ijodini nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-falsafiy kontekstda ham o'rganishga imkon beradi.

Shunday qilib, O'zbekistonda Sh.Ahmedova va D. Abdullayeva, Rossiyada Kramerskaya, Prokofyeva, Petrova, Ali-Zade, Kirpichenko, Shuyskaya, hamda Yevropa va Amerikada Cooke, Accad, Hafez kabi olimlar G'ada as-Samman ijodini turli qirralarda tadqiq etganlar. Bu tadqiqotlar arab ayollari ijodining o'ziga xosligini, arab feminizmi shakllanishidagi rolini va zamonaviy arab adabiyotidagi o'rini yoritadi. Ular shoirani "arab dunyosida ayol tafakkurining uyg'onish ramzi" sifatida baholashgan.

Livanlik va suriyalik tanqidchilar jumladan Salma Haddad va Muhammad al-Hallaz G'ada as-Samman ijodini arab she'riyatida "المرأة لوعي جديد صوت هي السمان غادة" ("arab ayol ongini va hissiyotining yangi ovozi") sifatida baholaganlar. Ularning fikricha, Samman arab ayollari adabiyotida yangi poetik ohang yaratib, ayolning ichki dunyosini badiiy shaklda ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Ba'zi

⁴ Ахмедова Ш. И. Замонавий Кувайт ҳикоянавислиги тараққиётида адибалар Лайло ал-Усмон ва Сурайё ал Баксамий ижодининг ўрни. Фил.фан. ном..... диссертацияси. – Т., 2010.

⁵ Мухиддинова Д.З. Жўрж Салим ҳикояларида бадий тафаккур эволюцияси. – Т. Фил. фан. ном. диссертацияси. –Т., 2008.; Мухиддинова Д.З. XX аср араб янги ҳикоячилигининг шаклланиши ва ривожланиши. Т. Фил.фан.док... диссертацияси. 2017.

⁶ Абдуллаева Д.С. Замонавий араб ва ўзбек ҳикояларида бадий психологизм (*Ғада ас-Самман ва Зулфия Қуролбой қизи ҳикоялари мисолида*): Филология фанлари бўйича PhD диссертацияси. Тошкент давлат шарқшунослик университети. Тошкент, 2022.

⁷ Али-Задэ Э. *Сирийская литература и культурные процессы*. – Москва: Наука, 2005.

⁸ Cooke, M. *Opening the Gates: A Century of Arab Feminist Writing*. – Bloomington: Indiana University Press, 1990. – С. XX.

⁹ Accad E. *Sexuality and War: Literary Masks of the Middle East*. – New York: New York University Press, 1990.

adabiyotshunoslar esa uni mashhur shoir Nizor Qabbani bilan qiyoslab, “Unlike Nizar Qabbani, who often romanticized women, Ghada al-Samman explored the inner world of women with deeper psychological insight.” (“*U shoiradirki, ayolning ichki dunyosini Nizor Qabbaniyga qaraganda yanada chuqurroq, psixologik darajada ochib bera oldi.*”) deb ta’riflashgan.¹⁰ Bu baho Samman ijodining arab adabiyotida ayol nigohini mustaqil va kuchli ovoz sifatida shakllantirganini ko’rsatadi.

G’ada as-Samman ijodida she’riyatning o’rni

G’ada as-Samman uchun she’riyat — bu hissiyotlarning ifodasi emas, balki ijtimoiy ongni uyg’otish vositasidir. Uning she’rlarida sevgi, vatan, ayollik, urush, tinchlik, yolg’izlik va inson qadr-qimmati makaziy mavzular sifatida namoyon bo’ladi. Uning she’rlari haqida arab va g’arb tadqiqotchilari quyidagicha qarash bildirgan: Amerikalik Tadqiqotchi Katie Marie Logan o’z dissertatsiyasida shunday deydi: “Ghada al-Samman has often been described as *the Arab world’s Virginia Woolf*, for her experimental style and her focus on women’s inner lives and social realities.” (“arab dunyosining Virjiniya Vulfi”) ¹¹ deb ataladi. Chunki u roman va she’riyatda modernistik uslublarni qo’llagan, xuddi Virginia Woolf singari oqim-ong va ichki monologlardan foydalangan. U ayollarning ijtimoiy o’rni, urush va tinchlik, yolg’izlik va inson qadr-qimmati haqida yozadi. Bu Woolfning ayollik va jamiyat haqidagi asarlari bilan uyg’unlikda ko’riladi. As-Samman she’riyatni shaxsiy hissiyot emas, balki jamiyatni uyg’otish vositasi sifatida ko’radi. Woolf¹² ham o’z davrida jamiyatdagi gender va ijtimoiy muammolarni adabiyot orqali ko’tarib chiqqan.

G’ada as-Samman ayol ruhini ichki monologlar orqali chuqur tahlil qilgan; uning muhabbatga qarashi ijtimoiy-falsafiy xarakterga ega — sevgi uning asarlarida ozodlik, erkin fikr va o’zini anglashning timsoli; arab tanqidchilari uni modernizm, ekzistensializm va feminizm yo’nalishlarining birlashuv nuqtasi deb bilishadi. D.Abdullaeva dissertatsiyasida ham As-Samman asarlarida ayol ruhiyatining psixologik tahlili, ichki “men”ning bo’linishi, yolg’izlik motivi asosiy masala sifatida ko’rsatilgan; ayni metodologiyani she’riy asarlarda ham qo’llash mumkin.

Shoiraning poetik uslubiga keladigan bo’lsak quyidagi jihatlar yaqqol namoyon bo’lib turadi:

- Modernizm va ramziylik (simvolizm) – obrazlar orqali yashirin ma’no ifodalash.
- Ichki monolog – shaxsiy kechinmalarni jamiyatdagi umumiy muammolar bilan bog’lash.
- Falsafiy mushohada – inson, vaqt va erkinlik haqidagi fikrlar.

Masalan, uning mashhur 1976 yilda yozilgan “أشهد على جنوني” (*Ashhad ‘ala jununi – Men o’z telbaligimga guvohman*), to’plamidan olingan “أعشق خوفي” she’ridan parchada shunday yozadi:

“أعشق خوفي لأنه يذكرني أنني حيّة”

¹⁰ Haddad, Salma. *Life of Ghada al-Samman and her Literary Works*. – Sprin Publisher Journal of Arabic and English Studies, 2023

¹¹ Logan, Katie Marie. *Virginia Woolf and Arab Women Writers Narrate Memory : dis. ... PhD in Comparative Literature*. – Austin : University of Texas, 2016. – 245 p.

¹² Virginia Woolf (1882–1941) ingliz modernistik adabiyotining eng muhim vakillaridan biri hisoblanadi [Virginia Woolf, 1925].

(Yuragimdagi qoʻrquvga oshiqman, Yashayotganimni eslatgani uchun.) Bu satrda muallif qoʻrquvni salbiy tuygʻu sifatida emas, balki **hayotiylikning guvohi** sifatida talqin qiladi. Qoʻrquv — insonning ongini hushyor tutadigan, yurak urishini eslatadigan ichki signal. Shu bois, qoʻrquvni sevish — hayotni sevishning boshqa shakli. Adiba qoʻrquvni qabul qilish orqali ekzistensial maʼnoga urgʻu beradi: inson oʻz qoʻrquvini tan olganda, u yashayotganini chuqurroq anglaydi. Bu misra, aslida, **qoʻrquvni yengish emas, balki uni hayotning bir qismi sifatida qabul qilish** gʻoyasini ifodalab keladi. Shunday qilib, qoʻrquv — tiriklikning isboti, uni sevish esa hayotning oʻzini sevishdir.

U oʻzini yana bir sheʼrida:

”أفتتح الحب بك والفرح وأتوجك في مملكة الذاكرة أميراً“¹³

(Men sevgini va quvonchni sen bilan boshlayman, seni xotira saltanatida sulton deb toj kiyintiraman).

Ushbu parchada muallif sevgini va quvonchni bir shaxs bilan bogʻlaydi. Bu yerda suyukli yor nafaqat tuygʻularining markazi, balki xotira dunyosining hukmdori sifatida tasvirlanadi. “Saltanat” va “shahzoda” obrazlari orqali muallif sevgining abadiyligini, xotiraning hukmronligini bildiradi. Demak, bu misra sevgi va xotirani birlashtiruvchi poetik qarashni koʻrsatadi — sevgili xotira ustidan hukmron, quvonchning boshlanishi va hayotiy maʼnoning markazi sifatida talqin qila olamiz.

Arab munaqqidlarining fikrlari va iqtiboslar

Arab tanqidchilari Gada as-Samman sheʼriyatini zamonaviy arab adabiyotining yangi bosqichi deb baholashadi. Munaqqid Salma Haddad shunday deydi:

قصائد غادة السمان استطاعت أن تعبر عن ألم القلب الأثني على مستوى العالم“¹⁴

”العربي“

(Gʻada as-Samman sheʼrlari ayol qalbining ogʻrigʻini butun arab dunyosi darajasida ifodalay olgan)

Mashhur arab shoiri va adabiy tanqidchi Adonis (asl ismi Ali Ahmad Said Esber, 1930-yilda Suriyada tugʻilgan) zamonaviy arab sheʼriyatida modernistik inqilobni boshlab bergan ijodkor sifatida tanilgan. U arab adabiyotini klassik shakldan chiqarib, erkin, metaforik va falsafiy yoʻnalishga olib kirgan. Adonis Gʻada as-Samman poetikasini quyidagicha taʼriflaydi:

”إنها تكشف الحقيقة المختبئة في الكلمة، وتغني الحرية لا بالكلمة بل بالشعور“¹⁵

(U soʻzning ichiga yashiringan haqiqatni ochib bera oladi; u erkinlikni soʻz bilan emas, his bilan kuylaydi)

“Suad al-Sabah, inspired by Ghada al-Samman, wrote about women’s identity and the freedom of love.”¹⁶ Taniqli shoira Suad as-Sabah Gada as-Sammandan ilhomlanib, ayol shaxsiyati va sevgi erkinligi haqida yozganini taʼkidlaydi.

¹³ غادة السمان. — بيروت : منشورات غادة السمان، 1976. — 198 ص / أعلنت عليك الحب. السمان، غادة.

¹⁴ Haddad, Salma. *Life of Ghada al-Samman and her Literary Works*. — Sprin Publisher Journal of Arabic and English Studies, 2023.

¹⁵ Adonis. *Poetics of Modern Arabic Literature*. — JSTOR, 2019.

¹⁶ IAFOR Research Archive. *Women’s Voices: An Analysis of Arab Women’s Poetry and Its Role in Empowerment*. — IAFOR, 2022. ⇨ IAFOR maqola havolasi

Uning she'riyati arab modernizmi kontekstida Nizor Qabbani, Adonis va Fadva Tuqan singari ijodkorlar bilan bir qatorda turadi, ammo ularning har biridan farqli ravishda, G'ada as-Samman o'z asarlarida ayolni ijtimoiy-siyosiy kurash markaziga olib kirdi. Ayol ruhiyatini faqat romantik tuyg'ular bilan emas, balki erkinlik, mustaqillik va jamiyatdagi o'rni bilan bog'lab tasvirladi. Samman o'z she'riyatida ayol "men"ni adabiy tafakkur darajasiga ko'targan va uni ijtimoiy hamda adabiy muloqotning faol subyekti sifatida namoyon etgan.

Xulosa

G'ada as-Samman arab adabiyotining eng jasoratli va ta'sirchan ayol shoirlaridan biri sifatida tanilgan. U o'z asarlarida ayollik, erkinlik, sevgi va vatan mavzularini chuqur falsafiy ruhda yoritib, ularni zamonaviy arab she'riyatining markaziy g'oyalariga aylantira olgan. Uning she'rlari zamonaviy arab modern she'riyatiga yangi mazmun, yangi ohang va yangi estetik ko'lam olib kirgan. As-Samman ijodida hissiyot, ong va ijtimoiy tanqid uyg'unlashib, arab feminizm adabiyotining yetakchi timsolini yaratgan.

Zamonaviy arab she'riyati kontekstida G'ada as-Samman ijodini o'rganish nafaqat arab ayollari tafakkurining evolyutsiyasini, balki butun Sharq adabiy tafakkurining yangi bosqichini anglash imkonini beradi. Chunki Samman Sharq va G'arb adabiy tafakkurini uyg'unlashtirib, ayol ruhiyatini yangi psixologik-badiiy darajada ifodalash bilan birga muhabbatni ijtimoiy va axloqiy g'oyalar bilan bog'lagan. G'ada as-Samman she'riyati o'zbek kitobxoni va adabiyotshunosligi uchun ham yangi estetik tajriba, ayol "men"ning global adabiyotdagi ovozi angash imkonini beradi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Cooke, M. *Arab Women Writers: The Modern Period*. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
2. Accad, E. *Sexuality and War: Literary Masks of the Middle East*. New York: NYU Press, 1990.
3. Al-Samman, Ghada. *Poems of Beirut*. Beirut, 1972.
4. Haddad, S. *Al-Mar'a fi Shi'r Ghada al-Samman*. Beirut, 1998.
5. Al Kaisy, Iman Adnan. *Losing a Library of One's Own: Ghada Samman's Beirut Nightmares, Feminist Rebellion, and World Literature*. A thesis submitted in partial fulfillment of the requirements. American University of Beirut, 2017.
6. Abdullayeva, D. *Zamonaviy arab va o'zbek hikoyalarida badiiy psixologizm*. Toshkent: Universitet, 2022.
7. Ахмедова, Ш. И. *Замонавий Кувейт ҳикоянавислиги тараққиётида адаблар Лайло ал-Усмон ва Сурайё ал-Бақсамий ижодининг ўрни*. Филология фанлари номзоди диссертацияси. Toshkent, 2010.
8. Мухиддинова, Д. З. *Жўрж Салим ҳикояларида бадий тафаккур эволюцияси*. Филология фанлари номзоди диссертацияси. Toshkent, 2008.
9. Мухиддинова, Д. З. *XX аср араб янги ҳикоячилигининг шаклланиши ва ривожланиши*. Филология фанлари доктори диссертацияси. Toshkent, 2017.
9. Adonis. *Poetics of Modern Arabic Literature*. JSTOR, 2019.

- 10.Haddad, Salma. *Life of Ghada al-Samman and her Literary Works*. Springer Publisher Journal of Arabic and English Studies, 2023.
- 11.IAFOR Research Archive. *Women's Voices: An Analysis of Arab Women's Poetry and Its Role in Empowerment*. IAFOR, 2022.